

TALABALARINI RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIM ASOSIDA SHAKLLANTIRISHNI AMALGA OSHIRISHGA TAYYORLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN METODLARI

Ergasheva Matluba Burxonovna

JDPI. Boshlang'ich ta'lim nazariyasi

va amaliyoti kafedrası o'qituvchisi.

Tel:90-643-40-33.

Annotatsiya: Ushbu maqolada rivojlantiruvchi ta'lim ma'lum bir vaqtda o'quvchining ta'limiy, tarbiyaviy, manaviy, ruhiy va jismoniy hamda uni tez o'zgaruvchan dunyoda, jamiyatga hayotga moslashuvini ta'minlovchi ta'lim nazariyasi haqida boshlang'ich sinfda o'quv jarayonining yangilanishi rivojlantiruvchi ta'lim nazariyasi va amaliyotida olib boriladigan izlanishlarga tayanadi. Rivojlantiruvchi ta'lim samaradorligi avvalom bor boshlang'ich sinf o'quvchilari o'quv faoliyatini faollashtirish orqali erishiladi. O'quvchi o'qituvchi tomonidan tushuntiriladigan yangi bilimlarni tayyor ko'rinishda passiv idrok qilmasligi, balki ularni kuchi yetadigan mustaqil ishda topishi haqida so'z boradi.

Tayanch so'zlar: Rivojlantiruvchi ta'lim, boshlang'ich ta'lim, passiv idrok, idrok qilish, faoliyatli yoddashuv, o'qitish, qiziqishning ortishi, boshlang'ich ta'lim.

Qadimgi yunon faylasufi Suqrotning “o'zgalarni o'zgartirmoqchi bo'lgan inson avvalo o'zini o'zgartirishi lozim. Buning uchun esa aniq maqsad, tolmas iroda va doimiy izlanish kerak” degan hikmatli iborasi bu borada hammamiz uchun asosiy mezon bo'lishi lozim. “Buyuk ajdodlarimizga hos ajmu shijoat” mamlakatimiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning tub zamirida ijtimoiy faol, barkomol yosh-avlodni tarbiyalash eng muhim muammo sifatida ilgari surilmoqda.¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti BMT Bosh Assambleyasining 2017 yil 23 sentyabrdagi 75 sessiyasida so'zlagan nutqida yoshlar masalasiga to'htalar ekan: “mamlakatimiz aholisining yarmidan ko'pini yoshlar tashkil etadi. Respublikamizda har bir yigit – qizning jamiyatda munosib o'rin egallashi va o'z salohiyatini namoyon etishi bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirilmoqda”. O'zbekistonda Yoshlar parlamentlari, Yoshlar ishlari agentligi faoliyat ko'rsatmoqda. Avgust oyida Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida yoshlar huquqlariga bag'ishlangan Samarqand xalqaro forumi muvaffaqiyatli o'tkazildi. Fursatdan foydalanib, yana bir bor Yoshlar huquqlari to'g'risidagi Birlashgan Millatlar Tashkiloti Konvensiyasini qabul qilish bo'yicha O'zbekiston tashabbusini qo'llab – quvvatlashga chaqiraman» - degan fikrlari dunyo hamjamiyati tomonidan ham keng e'tirof etilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019 yil 19 mart kuni ilgari surgan besh muhim tashabbuslari ham ijtimoiy faol talaba-yoshlarni tarbiyalashda ta'lim mussasasi o'rni va ahamiyati juda yuqori. Chunki, ushbu ilgari surilgan “beshta eng muhim tashabbusda yoshlarga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, yoshlarda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, yurtimiz yoshlari o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta'minlash” kabi vazifalar mamlakat ertangi kuni uchun, yetuk, yoshlarni barkamol avlod bo'lib voyaga yetishlarida ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish muhim o'rin egallaydi. Zamonaviy oliy pedagogik ta'lim rivojlanishi bosqichining o'ziga xos jihati bo'lib bo'lajak o'qituvchilar tayyorgarligini maqsadli, mazmuniy va texnologik o'zgartirish hisoblanadi. Maqsadni qo'yish apparatining o'zgarishi taxsil oluvchining o'z o'quv faoliyati sub'yekti sifatida qabul qilinishi, demak, sub'yektki-ob'yektki munosabatdan sub'yekt-sub'yektki (shaxsiy) munosabatga ega o'quv jarayonida o'qituvchi va o'quvchi munosabatlari paradigmasining almashinuvi bilan shartlangan; mazmuniy va texnologik qayta o'zgarishlar yangi maqsadlarga erishishni ta'minlashi kerak. Pedagog kasbiy tayyorgarligi

¹. Sh.Mirziyoyev.”Yangi O'zbekiston strategiyasi”.2021 yil

muammosi bugungi kunda mamlakatda tezda o'zgarib turadigan siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlarga, ya'ni o'qituvchiga sotsial va madaniy rol ajratiladigan mamlakatda alohida ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Rivojlantiruvchi ta'lim ma'lum bir vaqtda, o'quvchining ta'limiy, tarbiyaviy, ma'naviy, ruhiy va jismoniy rivojlantirish hamda uni tez o'zgaruvchan dunyoda jamiyatga, hayotga moslashuvini ta'minlovchi ta'lim nazariyasidir. O'z kelajagini o'ylagan har bir davlat jamiyat hayotidagi shaxsga taalluqli barcha ijtimoiy ta'sirlarni insonning rivojlanishi uchun, uning o'zligini anglashi va namoyon qila olishi uchun maqsadli ravishda yo'naltira olgan bo'lishi kerak. Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalar qo'llanganda, o'quvchilar qiziqishining ortishiga, bilimlarning ko'nikmaga aylanishiga, bilim sifat-samaradorligining oshishiga sabab bo'lmoqda. Ma'lumki, boshlang'ich ta'lim o'quvchilarning aqliy rivojlanishlari, ma'naviy fazilatlarini rivojlantirib borishga asos yaratadi. Bu davrda bolaga beriladigan bilimlar vositasida shaxsning ongi, tafakkuri, dunyoqarashi va ma'naviy dunyosini o'stirib rivojlantirib borish-ta'limda bolaning rivojlanish jarayonini tashkil etishning asosiy ko'rinishlaridan biridir. Boshlang'ich ta'limda amaliy faoliyat va turli qiziqarli vositalar asosida kerakli bilimlar singdirilib boriladi. Bu faoliyat jarayonida o'quvchi biron bir natijaga erishishi, obrazlar orqali tasavvur qilishi, o'z qo'li bilan biron narsalarni yaratishi, ijod qilishi orqali rivojlantirilib borilgan bola o'z menini anglay boshlaydi. Rivojlantiruvchi ta'limning maqsadi-O'quvchilarda mantiqiy, tanqidiy, tahliliy, ijodiy fikrlashni rivojlantirish orqali barkamol shaxsni shakllantirishdan iboratdir. Rivojlantiruvchi ta'limning vazifasi-shaxsning individual kamol topishi uchun zarur bo'ladigan hayotiy ko'nikma va malakalarini rivojlantirish sanaladi. Rivojlantiruvchi ta'limning o'ziga xos xususiyatlari-o'quvchilarda topshiriqlarni echishga oid nazariy tushuncha va amaliy ko'nikma, malakalarni shakllantiradi. O'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Pedagogik texnologiya kafolatli ta'lim-tarbiya maqsadga erishish bilan axamiyatli va dolzarbdir. Shuning uchun maqsadning aniqligi, unga mos mazmun, maqsadga bosqichma-bosqich erishishda tarbiyalanuvchining va tarbiyachi faoliyatining uyg'unligi pedagogik texnologiyaning talabidir. An'anaviy ta'lim-tarbiya tizimida ham maqsad pedagogning asosiy muammosi bo'lib kelgan. Chunki quruvchi oldindan nimani qurayotganini bilganidek, tarbiyachi ham kimni tarbiyalamoqchi, nimani shakllantirmoqchi ekanini bilishi shart. Ta'lim-tarbiyaning maqsadi-kishi shaxsining modeli sifatida qoida mavjud. Ammo pedagogik texnologiyada maqsad va unga erishish kafolatli butun pedagogik jarayon, texnologiya jarayonining mezoni, kalitidir. Avvalo jamiyat va davlat buyurtmasidan kelib chiqadigan ta'lim-tarbiyaning umumiy maqsadiga asoslaniladi. Bugungi kunda O'zbekistonda kadrlar tayyorlash Milliy dasturi ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilishdek tashkiliy tadbirlarda bevosita ta'lim-tarbiya vazifalarini qo'yadi.

Shuningdek, ta'lim mazmuni asosida maqsad qo'yish; pedagogik faoliyati asosida; o'quvchilarning qobiliyati, xissiy ta'sirlanishi asosida, ichki jarayon asosida, o'quvchini o'rganish faoliyati asosida, maqsad qo'yish texnologiyasini tavsiya etadi.

Maqsadga bosqichma-bosqich erishilganiga qarab, u muvofiqlashtiriladi, maqsadga to'la erishish uchun o'ziga xos texnologik yo'l qo'llanadi, yangi-yangi o'quv maqsadlari qo'yiladi.

Demak, pedagogik texnologiyaning odatdagi didaktik maqsaddan farqi diagnostika asosida maqsad qo'yilishidir. Sinf, guruh yoki alohida o'quvchiga qo'yilgan diagnoz qanchalik to'g'ri bo'lsa, qo'yilgan maqsad shunchalik to'la va oson bajariladi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek pedagogik texnologiya maqsadga to'la erishish printsipi etakchilik qiladi. Shuning uchun M.V.Klarin maqsadga erishish texnologiya"sini alohida taxlil qiladi. Uni uchga bo'lib o'rganadi: etalon maqsadga "mezoniy baxolash", "ta'limiy jarayon" va "maqsadga to'la erishish".

Maqsadga to'la erishish uchun natijani bosqichma-bosqich baxolash zarur bo'ladi. Bugungi kunda test nazoratini joriy etilishi, bu didaktik vazifani amalga oshirishga qo'l keladi. Ma'lumki, testda ta'lim maqsadi, erishiladigan mezon o'z aksini topadi. Shuning uchun har bir bosqichda test orqali natijani aniqlash maqsadga muvofiqdir. Buning uchun ta'lim maqsadini testga tushirish muhim masaladir.

O'qitishda takrorlovchi bosqich texnologik jarayonda alohida o'rin tutadi. Takrorlashda: ta'limning umumiy maqsadi; umumiydan ma'lum aniq maqsad belgilanishi va har bir bosqichda o'quvchining o'zlashtirishi dajarasini aniqlash; shunga asosan ta'lim jarani muvofiqlashtiriladi, boshqariladi.

Texnologik jarayon ishlab chiqarilgan texnologik hujjatlar asosida amalga oshiriladi, bu hujjatlarning asosiy tarkibiy qismi esa texnologik xaritalar hisoblanadi. Texnologik hujjatlar, qayta takrorlanadigan ishlab chiqarish siklining qancha mahsulot kerak bo'lsa, uni shuncha marta amalga oshirish imkonini beradi.

Shunga o'xshash, pedagogik texnologiya doirasida qayta takrorlanadigan o'qitish siklini amalga oshirish uchun, uning yakunlovchi bosqichida pedagogik-texnologik xaritalar ishlab chiqiladi. Uning asosida o'qitish jarayonini bir necha marta tashkil etish mumkin, ya'ni qayta takrorlanadigan o'qitish siklini ro'yobga chiqarish mumkin. Pedagogik texnologik xaritalar, pedagogik texnologiyani ko'p nusxada ko'paytirishga va o'quv yurtining qayerda joylashganligidan qat'iy nazar ko'zlangan o'qitish natijalariga erishishga imkoniyat yaratadi. Pedagogik texnologik xarakterlarning shakli va mazmuni – jadvalda keltirilgan.

Pedagogik texnologik xarita har bir mavzu modul uchun alohida tuziladi. Ularning majmuasi pedagog texnologik xaritalar albomini tashkil etadi.

Pedagogik texnologik xarita–pedagogik texnologiyaning qayta takrorlanadigan o'qitish siklini tashkil etuvchi hujjatlaridan biridir.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Sh.Mirziyoyev."Yangi O'zbekiston strategiyasi".2021 yil
2. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T: "SHarq" nashriyot matbaa kontserni, 1997.
3. The Role Of Mathematical Issues In Improving The Methodological Training Of Future Mathematics Teachers. International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT) ISSN: 2509-0119. © 2021 International Journals of Sciences and High Technologies <http://ijpsat.ijsh-t-journals.org> Vol. 25 No. 2 March 2021, pp. 94-97
4. Application of information and communication technologies in solving geometric problems. Annals of R.S.C.B., ISSN:1583-6258, Vol. 25, Issue 3, 2021, Pages. 4191 - 4197 Received 16 February 2021; Accepted 08 March 2021skopus
5. 5.Ta'lim fidoiylari.
6. Ergasheva M."Bolajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarnirivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirishga tayyorlash nazariy asoslari,rivojlantiruvchi ta'lim pedagogic psixologik muammo sifatida"TDPU."Ilmiy axborotnomalari".2022yil
7. N.N. Azizxo'jaeva. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T. Nizomiy nomidagi TDPU. 2006 y.
8. Madyarova S. A. va boshq. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.- T.: IQTISOD-MOLIYA, 2009, 240 b.
9. Ergasheva M."Bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilarini rivojlantiruvchi ta'lim asosida shakllantirish metodlaring amaliyotga joriy etilishi"CARIJIS.181-186.bet.